

## **SOYA, HUZUR, QAVMI LEKSIK BIRLIKLARINING YORDAMCHILIK XUSUSIYATI TO‘G‘RISIDA**

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy tillar va gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti, ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи o‘qituvchisi*

***Erbutayeva Shalola***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Soya+si+da, huzur+i+da, qavm+i+da so‘zining leksik, semantik, grammatik, lingvopoetik tahlili keltirilgan bo‘lib, til taraqqiyoti davrida ayrim so‘zlarda uchrovchi semantik o‘zgarishlar, o‘z navbatida grammatik sathga ham ta’sir etishi va buning natijasida turkumlararo ko‘chishning yuzaga kelishiga imkoniyat yaratib berishi ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ko‘makchi, ko‘makchilashish, Soya+si+da, huzur+i+da, qavm+i+da

Ko‘makchi turkumiga o‘tayotgan so‘zlar o‘zlaridagi lug‘aviy ma’no anglatish xususiyatini yo‘qotadi. Ular grammatik ma’no anglatish tomon siljiydi. Kelishik qo‘sishchalari bilan sinonimlikni yuzaga chiqaradi. Bunday shakliy va mazmuniy o‘zgarishlar ko‘makchilashayotgan leksik birliklarni tamomila atash ma’nosidan uzoqlashtirmaydi, balki ular bir o‘rinda ko‘makchi, boshqa o‘rinda mustaqil so‘z turkumi vazifasini bajaradi. Dastlab funksional ko‘makchi hosil bo‘lsa, keyinchalik bu jarayon yillab davom etishi natijasida sof ko‘makchilar vujudga keladi. Ushbu maqolamizda ijodkor badiiy topilmasi sifatida uzual va okkazional ma’nolarning ifodalanishi esa alohida masala sifatida qaralgan. Leksik, grammatik, vazifa semalari tahlili, ko‘makchilik funksiyasi haqida mulohazalarimiz ifodalab berilgan.

Soyasida – ( b. k. bilan ) ko‘makchi vazifasida. Tufayli, orqasida, orqali. Sharofatlaringiz soyasida ko‘p kishilar bilan tanishdik. A.Qodiriy, O‘tgan kunlar.<sup>1</sup> Bu leksik birlik *soya* so‘ziga *egalik* va *kelishik* affiksi qo‘shilishi natijasida ko‘makchi vazifasini bajarayotganligi ma’lum, lekin yuqorida keltirilgan misolimizda ko‘makchi vazifasida qo‘llanayotgan bo‘lishiga qaramasdan, mustaqil ma’no anglatuvchi soyasida leksemasidan farqlashimiz lozim. *M: Mana bordingiz deylik. Chol bog‘dagi biror daraxt soyasida, albatta, esnab o‘tirgan bo‘ladi.*<sup>2</sup> Keltirilgan gapimiz tarkibidagi *soyasida* leksemasi quyidagi ma’noli qismlarga bo‘linadi. **Soya+si (egalik affiksi I shaxs birlik)+da( kelishik shakli, o‘rin-payt kelishigi).** Yordamchi (ko‘makchi) so‘z vazifasida qo‘llanilgan *soyasida / soyasiga* so‘zлari ma’noli qismlarga ajratilmaydi va bunday holatda kelishik affikslari bilan sinonimlikni yuzaga chiqaradi.

*M:*

*Bolaning ichida yashaydi daho, Yashar yaratganning xush soyasida,*  
*Olam mohiyatday yastanib yotar, Dahoning g‘aroyib poshpanasida...<sup>3</sup>*

Eshqobil Shukur ijodiga mansub ushbu misralarda *soyasida* birligi *homiyligida, himoyasida* ma’nolarida qo‘llanilgan. Bu o‘rinda morfologik jihatdan ko‘makchi vazifasini bajarmasdan, ot so‘z turkumi vazifasida qo‘llanilyapti. Sintaktik jihatdan esa kimning? so‘rog‘iga javob bo‘lib, aniqlovchi vazifasini bajaryapti. Etimologik lug‘atda *soya* leksemasi tojik tilidan o‘zlashganligi, ot so‘z turkumiga oid so‘z ekanligi aytilgan. Yuqorida keltirgan misramiz tarkibidagi *yaratganning soyasida* birikmasi panohida, *himoyasida* ma’nolarini to‘liq izohlab, denotativ ma’no ifodalaganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘TILning *soya* leksemasiga bag‘ishlangan maqolasida ham “*himoya, homiylik*” ma’nolari mavjud ekanligi keltirib o‘tilgan. *M: Mingboshi bir oz o‘ylandi... mening soyayi davlatimda, xoxlasang, boqqa chiqib yot! Ha!*<sup>4</sup> Keltirilgan bu gapimiz tarkibida ko‘makchi vazifasi ifodalangan. Izofali

---

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати, - Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти, 2006-2008., III том С харфи 422-бет

<sup>2</sup> Misollar “Shovqin” romanidan olindi. 20-bet

<sup>3</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Шеърлар ва достон. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа аксиядорлик компанияси, 2002. – 1226.

<sup>4</sup> Cho‘lpon, Kecha va kunduz. Roman.- Toshkent: Sharq, 2000, 211-bet

birikma shaklida bo‘lganligi sababli kelishik affiksi *davlatim* tarkibida qo‘llanilgan.

M: **Ularning soyalarida** bu zot askariy rutbalaridangina ajrab, kissasi ko‘p ham qoqlanmasdan, o‘lkaning u chekkasidan bu chekkasiga “surgun” bo‘lib kelgan va munda ... xususiy zakunchilik kasbiga kirishgan.<sup>5</sup> Ushbu gapimizda ular tufayli ma’nosi *soyalarida* birligi orqali ifodalab berilgan. *Soyasida* ko‘makchisi fors tiliga taalluqli bo‘lib, ba’zan ko‘chma ma’noda qo‘llanadi va badiiy matnni boyitish uchun ishlatiladi.

M: *O, qancha toblandim bug ‘doypoyangda*

*Har boshog ‘i – g ‘urur, har donasi – or.*

*Quyosh qolib ketsin sening soyangda,*

*Yurtim, senga aytar bug ‘doyso ‘zim bor!*<sup>6</sup> Tilimizning barcha sath birliklari singari morfologik sathda ham yordamchi turkumga oid birliklar matnning emotsional-ekspressiv xususiyatini yuzaga chiqarishda faol ishtirok etadi. Ko‘makchi turkumiga oid *soya+si+da* ham aynan shu maqsadni ifodalash uchun ishlatilgan. *Quyosh qolib ketsin sening soyangda,*

*Yurtim, senga aytar bug ‘doyso ‘zim bor!*

Bu ko‘makchi hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llanilib, biror shaxsning ikkinchi shaxsga *ko‘magi/yordami* kabi ko‘chma ma’no va ish-harakatning bajarilishidagi asos, manba kabi ma’nolarni ifodalaydi.<sup>7</sup> Biz O‘TILda bu ko‘makchi vazifasida qo‘llanuvchi so‘zning “tufayli”, “orqasida”, “orqali” kabi ma’nolarini ko‘rib chiqdik, Turdi Rustamov ham aynan soyasida ko‘makchisining “ko‘magi / yordami” kabi ma’no qirralari mavjudligi, bu ma’nolar konotativ ma’no ifodalovchi bosh kelishikdagi leksik birlikning asos manbaa vazifasini bajarishini aytib o‘tadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida qavm so‘zining 4-ma’nosi o‘rin-payt kelishigi+egalik shaklida, ya’ni qavmida holida “*qatorida*” ma’nosini bildirishi va bu o‘rinda ko‘makchi vazifasini bajarishi keltirilgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida

---

<sup>5</sup> Cho‘pon, Kecha va kunduz. Roman.- Toshkent: Sharq, 2000, 260-bet..

<sup>6</sup> Begzod Fazliddin. Sen qachon gullaysan.18-bet.

<sup>7</sup> Рустамов Т. Соф кўмакчилар.- Тошкент: Фан, 1991, 74-бет.

qo'llanishiga ko'ra nofaol, uslubiy chegaralangan birlik hisoblanadi. Qavm leksemasining tub ma'nosi – xalq, millat, kishilar to'dasi, guruhi.<sup>8</sup> Misollar izlash jarayonida *qavm* so'zining ko'makchi vazifasida kelishi kam uchrovchi holat ekanligi, to'la ko'makchilashib ulgurmagan so'z bo'lishiga qaramasdan yordamchi turkumga oid xususiyatlar mavjud, lekin aynan matn tarkibida ishlatalishi chegaralanganligining guvohi bo'ldik. *M: Endi:* “*O'likka til tekizish yaxshi emas, bejanoza to'ng'iz qavmida ketishga, aravada borib, hindimijoz kuydirishga biz qarshi*”, - *deb ko'pchilikning savodsizligidan foydalanadigan, ochiqroq aytsak, Zahiriddin a'lam bayrog'i ostiga to'planadiganlarga kandukdanjoy ko'rsatar ekanmiz-da, deb juda sevindim.*<sup>9</sup> *Bejanoza to'ng'iz qavmida* shaklida tobe munosabatga kirishgan bu sintaktik birikma *bejanoza to'ng'iz qatorida* kabi sema ifodalab, o'xshashlik ma'nosiga tengdir. Bu misolimizni ham sof ko'makchi bilan o'rin almashtirish orqali ular o'rtasidagi ma'no qirra bir-biriga juda yaqin ekanligining guvohi bo'ldik. *Bejanoza to'ng'iz+dek (singari, kabi)* ko'rib turganimizdek, aynan ma'nodosh, lekin uslubiy jihatdan ta'sirchanlikni oshirish maqsadida yozuvchi qavmida ko'makchisidan foydalangan deyishimiz mumkin.

*Huzur* so'zining ikki xil ma'nosi mavjudligi, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklaridan keyin egalik affiksi orqali makon ma'nosi ifodalanishi aytib o'tilgan. So'z ijodkorining mahorati natijasi o'laroq “*huzur*” leksemasining ko'makchi funksiyasini bajarishi, ijodkorning bu ko'makchi funksiyasidagi so'zni tanlashidan maqsadi, bevosita uning leksik ma'nosi bilan bog'lik ekanligi misollar yordamida izohlab berishga harakat qilindi. Vaholangki, yordamchi turkum vazifasida qo'llanish “*huzur*” leksemasining dastlabki denotativ ma'nosi “mavjud bo'lish, namoyon bo'lish, bor, hozir bo'lish”<sup>10</sup> ekanligi bilan bog'liq. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'atida old+da/qoshi+da/huzur+i+da o'zaro ma'nodosh

---

<sup>8</sup> Ўзбек тилининг изохли лугати, - Тошкент: Ўзбекистон Миллый Энциклопедияси нашриёти, 2006-2008, V том К харфи 201-бет.

<sup>9</sup> G'afur G'ulom “Mukammal asarlar to'plami 12 томлик, 211-bet

<sup>10</sup> Ўзбек тилининг изохли лугати, - Тошкент: Ўзбекистон Миллый Энциклопедияси нашриёти, 2006-2008, том К харфи 94-бет.

ekanligi keltirilgan.<sup>11</sup> Azamat Pardayev “huzur+i+da” vazifadosh ko‘makchisining rasmiy uslubga oidligini ta’kidlagan, bunga sinonim “ro‘para+si+da” ni keltirib, “tasodifan yuzma-yuz kelish” ma’nosi yuqoriligini aytib o‘tadi. Biz ko‘rib chiqqan misollarimizda, huzurida ko‘makchisi “oldida” ko‘makchisiga aynan ma’nodosh holda keladi.

*M: Ey, siz, dono ustoz olimam-  
Olis yurtda munis yo ‘ldoshim,  
Sizga egay **podsholarning ham**  
**Huzurida** egmagan boshim.*

Yoki

*Kimki biror ish bilan  
**Huzuriga kiradi** –  
Matmusa arz eshitmas,  
Qo ‘shiq aytib beradi.<sup>12</sup>*

Yuqorida keltirilgan misollarimizda *huzur* so‘zining mustaqil va yordamchi turkumga oid vazifa bajarganligi, matn tarkibidagina uning denotativ va konotativ ma’nolari anglashilishi va konotativ ma’no so‘zning grammatik ma’nosiga ma’lum darajada ta’sir etib, uning mustaqil turkumdan yordamchi turkumga siljishini ta’minlab bergen deyolamiz. Birinchi misolimizda, *podsholarning ham huzurida* = *podsholarning oldida, qarshisida* kabi ma’nolar ifodalanayotgan bo‘lsa, ikkinchi misolimizda esa *huzuriga kiradi* = *qabuliga kirmoq* ma’nosini shakllantirmoqda. Yuqoridagi misollarning sintaktik jihatdan tuzilishiga e’tibor qaratsak, *podsholarning ham huzurida* birikmasi yaxlit bitta gap bo‘lagi sifatida shakllangan, *huzuriga kirmoq* esa boshqaruqli birikma shaklida tuzilgan bo‘lib, har bir qism, ya’ni hokim va tobe qismlarimiz alohida – alohida so‘roqqa javob bo‘lib, turli gap bo‘lagi vazifasini bajarmoqda. Albatta, bu boshqa jihat, shunga qaramasdan ko‘makchi

---

<sup>11</sup> Xожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли лугати. – Ташкент:  
Ўқитувчи, 1974. 142-бет.

<sup>12</sup> Erkin Vohidov, Yaxshidir achchiq haqiqat, Toshkent, 1992. 42, 48-bet

vazifasida qo'llangan “huzur” leksemasining ma'nolarini aniq ifodalash uchun bu tomoniga ham e'tibor qaratish lozim deb hisobladik. Bu leksik birlik oldida ko'makchisiga sinonim bo'lib, o'rin-joy / makon munosabatini ifodalaydi. M:*Botirbek navbat-pavbatiga qaramay, daroz bo'lib safni yorib o'tdi-da, meni ergashtirib o'sha mo'jizakor tabibning huzuriga kirib bordi.*<sup>13</sup> Oldi/oldiga/oldida/oldidan ko'makchilari asosan og'zaki nutq uchun xos bo'lsa, huzur leksemasi yozma uslub uchun xoslangan. Turdi Rustamov bu ko'makchi haqida: “Bu ko'makchi XIX asrdan boshlab qo'llanilgan. Huzurida ko'makchisi bosh kelishikdagi ot va qaratqich kelishigidagi olmoshga birikadi”<sup>14</sup>, - ilmiy asoslangan xulosalarini berib o'tadi. Ko'makchi so'zlarda qisman leksik ma'no saqlanib, bu leksik ma'no ma'lum bir nutqiy vaziyatda yuzaga chiqishi haqida aytib o'tildi. Mustaqil ma'noli so'zlarning ko'makchilashishi ma'no ko'chisi natijasida yuz berishi misollar orqali isbotlandi. Ko'makchilarga faqatgina grammatic jihatdan baho bermasdan, balki nutqiy ta'sirchanlik vositasi sifatida ham qo'llash maqsadga muvofiq. Ko'makchilarga vazifaviy chegaralanganlik jihatidan qarash yordamchi so'zlarning, jumladan, ko'makchilarning emotsional-ekspressiv ma'no ottenkalarini aniqlashga to'sqinlik qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, - Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси нашриёти, 2006-2008., III том С харфи 422-бет
2. Рустамов Т. Соф кўмакчилар.- Тошкент: Фан, 1991, 77- бет.
3. Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Шеърлар ва достон. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа аксиядорлик компанияси, 2002. – 1226.
4. Erkin Vohidov, Yaxshidir achchiq haqiqat, Toshkent, 1992. 42, 48-bet
5. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. 142-бет.
6. G'afur G'ulom “Mukammal asarlar to'plami 12 томлик, 211-bet
7. Cho'lpon, Kecha va kunduz. Roman.- Toshkent:: Sharq, 2000, 260-bet..
8. Begzod Fazliddin. Sen qachon gullaysan.18-bet.

---

<sup>13</sup> Misollar “Shovqin” romanidan olindi. 78-bet.

<sup>14</sup> Рустамов Т. Соф кўмакчилар.- Тошкент: Фан, 1991, 77- бет.